

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№3

2026
MART



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 105 sahifa.
2026-yil, mart*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

KORXONALARDA ICHKI AUDIT TIZIMINING BOSHQARUV QARORLARI QABUL QILISHDAGI O'RNI	24
Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li	
FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGI VA SOLIQ TUSHUMLARI DINAMIKASI: O'ZBEKISTON MISOLIDA ILMIY TAHLIL	30
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI KELITIRIB CHIQUARUVCHI ASOSIY OMILLAR HAMDA IQTISODIYOTGA TA'SIRI	37
Toxtabayev Oybek Odilovich	
QISHLOQ XO'JALIGI OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ZAMONAVIY BOSHQARUV	42
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTON GLOBAL-IQTISODIY RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI	48
Kuvatova Oliya Sheraliyevna	
QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA ULARNI KAPITAL BOZORI INSTRUMENTLARI ORQALI MOLİYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	54
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR DAVRIDA TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING OMILLARI	61
Yangiboyev F.B.	
TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI ERTA ANIQLASH VA BOSHQARISHNING INTEGRATSIYALASHGAN RISK-INDEKS MODELİ	68
Kalandarov Abdulla Baxtiyorovich, Rajabov Shoxrux Suvon o'g'li	
RUX VA QO'RG'OSHINNI SELEKTIV AJRATIB OLISHNI KOMBINATSIYALASH TEXNOLOGIYASI VA NAZARIYASI.....	74
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Haqberdiyev Dilshod Qodir o'g'li	
UY-JOY QURILISHI HAJMINI UZOQ MUDDATLI PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH	81
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
O'ZBEKISTONDA BOG'DORCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA IQLIM VA TABIIY OFATLAR NATIJASIDA YETKAZILDAN TALOFATLARNI DAVLAT TOMONIDAN KOMPENSATSIYA QILISH MEXANIZMI.....	85
Sattorov Orifjon Boymurodovich	
AHOLI MOLİYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI.....	90
Abdug'aniyev Uchqun Habibulla o'g'li	
O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI	96
Musaeva Aynura Abayxolievna	



O'ZBEKISTON QURILISH SANOATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA TENDENSIYALARI

Musaeva Aynura Abayxolievna

TAQU, "Iqtisodiyot va ko'chmas mulk" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish sohasidagi rivojlanish dinamikasi va hududlar kesimidagi tendensiyalari tahlil qilingan. 2020–2025-yillar statistik ma'lumotlari asosida qurilish ishlari hajmi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, YaIMdagi ulushi hamda tarmoqdagi ko'rsatkichlar o'rganildi. Hududlar rivojlanish darajasini kompleks baholash maqsadida normallashtirish usuli asosida integral indeks hisoblanib, hududlar reytingi shakllantirildi. Tadqiqot natijalari investitsiyalar va qurilish ishlari hajmi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Hududiy differentsiatsiya darajasi aniqlanib, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash hamda investitsion faollikni rag'batlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik, qurilish sanoati, investitsiya, hududiy rivojlanish, integral indeks, YaIM, iqtisodiy o'sish, normallashtirish, reyting tahlili.

Abstract. This article analyzes the development dynamics of small business entities in the construction sector of Uzbekistan and regional trends. Based on statistical data for 2020–2025, the volume of construction works, fixed capital investments, the share in GDP, and sectoral indicators were examined. To provide a comprehensive assessment of regional development, an integral index was calculated using the normalization method, and regional rankings were established. The findings reveal a positive relationship between investment activity and construction output. Regional differentiation was identified, and practical recommendations were proposed to support small businesses and stimulate investment activity.

Keywords: small business, construction industry, investment, regional development, integral index, GDP, economic growth, normalization, ranking analysis.

Аннотация. В статье проведён анализ динамики развития субъектов малого предпринимательства в строительной отрасли Узбекистана и региональных тенденций. На основе статистических данных за 2020–2025 годы исследованы объём строительных работ, инвестиции в основной капитал, доля в ВВП и отраслевые показатели. Для комплексной оценки уровня регионального развития рассчитан интегральный индекс на основе метода нормализации и сформирован рейтинг регионов. Результаты исследования показали наличие положительной взаимосвязи между инвестициями и объёмом строительных работ. Выявлена региональная дифференциация и предложены практические рекомендации по поддержке малого бизнеса и стимулированию инвестиционной активности.

Ключевые слова: малое предпринимательство, строительная отрасль, инвестиции, региональное развитие, интегральный индекс, ВВП, экономический рост, нормализация, рейтинговый анализ.



KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotida raqobat muhitining kuchayishi, investitsiya oqimlarining transmilliylashuvi hamda resurslardan samarali foydalanish masalalarining dolzarbligi milliy iqtisodiyot tarmoqlarini chuqur modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda. Qurilish sanoati mazkur jarayonda strategik ahamiyat kasb etuvchi tarmoqlardan biri bo'lib, infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarish quvvatlarini yangilash, aholi bandligini ta'minlash hamda hududiy iqtisodiy muvozanatni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida qurilish tarmog'ining ulushi o'rtacha 6–7 foizni tashkil etmoqda, tarmoqda band bo'lgan aholi soni esa 1,3 mln nafardan oshgan [1]. Ushbu ko'rsatkichlar tarmoqning iqtisodiy o'sishdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Qurilish sohasida kichik biznes subyektlari ustuvor o'rinni egallab, korxonalarning asosiy qismini tashkil etadi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, tarmoqda faoliyat yuritayotgan subyektlarning 90 foizdan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillari hisoblanadi [1]. Ularning faol ishtiroki raqobat muhitini shakllantirish, subpudratchilik munosabatlarini rivojlantirish hamda hududiy iqtisodiy faollikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, kichik qurilish korxonalarining rivojlanish dinamikasi investitsiya muhiti, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati, tender mexanizmlarining shaffofligi hamda institutsional qo'llab-quvvatlash darajasiga bevosita bog'liq.

So'nggi yillarda qurilish sohasini tubdan isloh qilish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF–6119-son Farmoni¹ bilan 2021–2025-yillarda qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi [2]. Mazkur hujjat tarmoqda raqobatbardoshlikni oshirish, zamonaviy boshqaruv va raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda investitsion jozibadorlikni kuchaytirish kabi ustuvor vazifalarni belgilab berdi. Shuningdek, 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son² “Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da xususiy sektor ulushini kengaytirish va kichik biznesni iqtisodiy o'sish drayveriga aylantirish strategik maqsad sifatida qayd etildi [3]. 2023-yil 10-noyabrdagi PF–193-son Farmon³ esa kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, kredit resurslariga kirish imkoniyatini kengaytirish hamda kafolat mexanizmlarini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilab berdi [4].

Yuqoridagi islohotlar qurilish sohasida bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish, tender va pudratchilik munosabatlarini shaffof tashkil etish, smeta qiymatini shakllantirishda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish hamda kichik va yirik biznes subyektlari o'rtasida integratsion aloqalarni mustahkamlashni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish sanoatida kichik biznes subyektlarining rivojlanish dinamikasi hamda institutsional omillar ta'siri masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli jihatlarida o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarni shartli ravishda MDH davlatlari olimlari, Rossiya tadqiqotchilari hamda O'zbekiston iqtisodchi olimlari ishlariga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

MDH mamlakatlari olimlari qurilish sohasida kichik biznesni rivojlantirish masalasini institutsional islohotlar va integratsion jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qilganlar.

Ye.T. Gaydar iqtisodiy transformatsiya sharoitida xususiy sektorning, xususan kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi rolini asoslab berib, bozor mexanizmlarini chuqurlashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi [5].

D.O. Masoyan qurilish majmuasida integratsion jarayonlarni boshqarish mexanizmlarini tadqiq etib, kichik va yirik korxonalar o'rtasida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish tarmoq samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi [6].

V.A. Voronin esa qurilish sohasida investitsion jarayonlarni faollashtirish hamda innovatsion salohiyatni oshirish orqali kichik korxonalarning raqobatbardoshligini ta'minlash masalalarini tahlil qilgan [7]. Uning fikricha, qurilish tarmog'ida kichik biznesning barqaror rivojlanishi moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati va davlat qo'llab-quvvatlash siyosatining samaradorligiga bog'liq.

Rossiyalik olimlar qurilish iqtisodiyoti hamda kichik biznesni rivojlantirish masalalarini tarmoqning strukturasi va boshqaruv tizimi nuqtai nazaridan o'rganganlar.

M.A. Koroleva qurilish sohasida kichik korxonalar faoliyatini iqtisodiy modellashtirish asosida tahlil qilib, ularning ishlab chiqarish hajmi investitsiya va kredit resurslariga bevosita bog'liqligini ko'rsatgan [8].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 27.11.2020 yildagi PF-6119-son <https://www.lex.uz/uz/docs/-5130468>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.11.2023 yildagi PF-193-son <https://lex.uz/uz/docs/-6658633?ONDATE=11.11.2023%2000>

Ye.S. Kondyukova qurilish korxonalarida integratsion aloqalar va subpudratchilik munosabatlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini tadqiq etgan bo'lib, kooperatsiya asosida tashkil etilgan ishlab chiqarish jarayonlari xarajatlarni kamaytirishga xizmat qilishini isbotlagan [9].

L.V. Dayneko esa qurilish tarmog'ida innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda raqamli boshqaruv tizimlarini qo'llash kichik biznes subyektlarining mahsuldorligini oshirishini ta'kidlaydi [10]. Uning tadqiqotlari qurilish sohasida raqamli transformatsiyaning ahamiyatini yoritib beradi.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari kichik biznes va qurilish sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini chuqur o'rganganlar.

S.S. G'ulomov kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi o'rnini asoslab berib, uning milliy iqtisodiyotdagi ulushini oshirish barqaror taraqqiyotning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi [11].

A.M. Hikmatov qurilish iqtisodiyotini modernizatsiya qilish hamda investitsion jarayonlarni takomillashtirish orqali tarmoq samaradorligini oshirish masalalarini tadqiq etgan [12].

Sh.N. Zaynutdinov esa kichik biznesni rivojlantirishda institutsional muhit va davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab bergan [13]. Uning fikricha, qurilish sohasida kichik biznesning rivojlanishi uchun tender va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish muhim hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda qurilish sohasida kichik biznesni rivojlantirishning alohida jihatlari — investitsiya, innovatsiya, integratsiya hamda institutsional omillar keng yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslash, mantiqiy umumlashtirish hamda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, xalqaro va milliy tajriba, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilmiy manbalar asosida kompleks tahlil amalga oshirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakat iqtisodiy siyosatida turli ko'rinishdagi mulkchilik shakllarini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da ham iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish, tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hamda innovatsion iqtisodiyotga o'tish strategik vazifa sifatida belgilab qo'yildi. Qurilish sanoati milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida infratuzilmani rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, hududiy iqtisodiy muvozanatni mustahkamlash va investitsion faollikni rag'batlantirishda muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston sharoitida mazkur tarmoqda kichik biznes subyektlari asosiy ijrochi kuch sifatida shakllanib, qurilish ishlari hajmi va xizmatlar bozorida sezilarli ulushni egallab bormoqda. Tarmoqda faoliyat yuritayotgan subyektlarning aksariyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlik vakillari bo'lib, ular pudrat hamda subpudrat ishlarini amalga oshirish orqali qurilish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlamoqda.

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar, raqamli transformatsiya jarayonlari hamda investitsion muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar kichik qurilish korxonalarining rivojlanish dinamikasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, qurilish sohasini modernizatsiya qilish, shaharsozlik faoliyatining sifati va xavfsizligini oshirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish hamda bozor mexanizmlarini keng joriy etish sohaning raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu esa o'z navbatida kichik biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Qurilish sohasida smeta hujjatlarini shakllantirishda eskirgan texnologiya va mashinalarni foydalanishdan chiqarish, smeta qiymatini bozor tamoyillari asosida qayta ko'rib chiqish, tender savdolarini shaffof va raqobat muhiti asosida tashkil etish kabi chora-tadbirlar tarmoqda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga qaratilgan muhim qadamlar hisoblanadi. Shu bilan birga, shartnoma munosabatlarini takomillashtirish hamda qurilish pudrat tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish tizimini tender narxlari va bajarilgan ishlar hajmi asosida, ishlar yakunlangandan keyin baholash amaliyotini joriy etish kichik va yirik tadbirkorlik subyektlari o'rtasida ishonchli hamkorlik muhitini shakllantirmoqda.

Mazkur jarayonlarda pudratchilik va subpudratchilik munosabatlarining institutsional jihatdan mustahkamlanishi alohida ahamiyat kasb etadi. Yirik qurilish tashkilotlari bilan kooperatsiya asosida ishlash kichik korxonalar uchun barqaror buyurtma manbaini yaratib, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, kooperatsiya va integratsiya mexanizmlarining takomillashtirilishi xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini ixtisoslashtirish hamda tarmoqda sinergetik samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, qurilish sanoatida kichik biznes subyektlarining rivojlanish dinamikasini tahlil qilish, ularning investitsion va institutsional omillar ta'sirida shakllanayotgan tendensiyalarini baholash hamda kichik



va yirik biznes o'rtasidagi integratsion munosabatlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu esa tarmoqning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi (YaIM) ulushi, foizda⁴

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O'zbekiston Respublikasi	56,7	56,3	54,3	53,8	53,5	52,2
Qoraqalpog'iston Respublikasi	62,4	61,6	61,7	64,2	66,0	65,5
Andijon viloyati	73,0	74,6	69,8	68,6	70,1	70,1
Buxoro viloyati	77,0	77,4	74,4	72,5	72,4	71,0
Jizzax viloyati	83,8	80,6	78,3	74,8	74,7	71,2
Qashqadaryo viloyati	74,1	71,7	69,9	69,8	70,6	69,2
Navoiy viloyati	25,3	27,0	26,8	27,6	23,5	21,1
Namangan viloyati	76,4	76,1	74,6	74,0	73,9	73,6
Samarqand viloyati	75,2	74,3	70,8	72,0	72,4	69,5
Surxondaryo viloyati	77,9	78,0	77,3	76,6	77,9	76,4
Sirdaryo viloyati	72,9	71,2	67,8	65,0	68,5	69,5
Toshkent viloyati	51,2	48,3	50,4	53,3	55,1	55,0
Farg'ona viloyati	73,4	72,2	71,6	71,8	74,0	73,0
Xorazm viloyati	77,7	75,9	72,0	72,4	72,8	71,6
Toshkent shahri	54,4	52,0	52,2	52,4	52,3	51,7

1-jadval ma'lumotlarini qurilish ishlari hajmi bilan bog'liq holda tahlil qilganda, tarmoqlararo bog'liqlik yaqqol namoyon bo'ladi. Respublika miqyosida 2020–2025-yillarda kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 56,7 foizdan 52,2 foizgacha pasaygan. Biroq shu davrda qurilish ishlari hajmi mutlaq ko'rsatkichlarda izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Demak, ulushning qisqarishi iqtisodiy faollik pasayganini emas, balki yirik sanoat va infratuzilma loyihalari ulushi ortishi hisobiga nisbiy tarkibiy o'zgarish yuz berganini anglatadi.

Hududlar kesimida ulushi yuqori bo'lgan viloyatlarda qurilish faolligi ham barqaror rivojlanib bormoqda. Masalan, Surxondaryo, Namangan va Farg'ona viloyatlarida YaIMda kichik biznes ulushi 73–78 foiz atrofida bo'lib, qurilish ishlarining asosiy qismi aynan ushbu subyektlar hissasiga to'g'ri keladi. Mazkur hududlarda qurilish tarmog'i iqtisodiy o'sishning muhim drayverlaridan biriga aylangan.

Buxoro va Samarqand viloyatlarida ham kichik tadbirkorlik ulushi 70 foizdan yuqori darajada saqlanib qolgan bo'lib, qurilish ishlari hajmi so'nggi yillarda sezilarli darajada oshgan. Bu hududlarda kichik korxonalar yirik investitsion loyihalarda pudrat va subpudrat asosida faol ishtirok etmoqda.

Navoiy viloyatida esa kichik tadbirkorlik ulushi nisbatan past (23–27 foiz), chunki hudud iqtisodiyotida yirik sanoat korxonalari ustun mavqega ega. Shunga qaramasdan, qurilish ishlari hajmi bu hududda ham o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda.

Toshkent viloyati va Toshkent shahrida YaIMdagi kichik tadbirkorlik ulushi o'rtacha darajada bo'lishiga qaramasdan, qurilish ishlari hajmi respublika bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi. Bu holat shaharlashuv jarayonlarining jadalligi, yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi hamda investitsion faollikning yuqoriligi bilan izohlanadi.

Mazkur holat qurilish sanoatida kichik biznes rivojlanishini baholashda faqat nisbiy ulush ko'rsatkichlariga tayanish yetarli emasligini, balki mutlaq hajmlar, investitsiya dinamikasi hamda hududiy iqtisodiy strukturani kompleks ravishda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi (2-jadval).

4 **Manba:** muallif ishlanmasi (rasmiy statistik ma'lumotlar asosida).

2-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi (mlrd so'mda)⁵

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O'zbekiston Respublikasi	63866,6	77907,1	93554,5	159285,9	198789,8	230926,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	3597,3	3843,6	4649	6681,3	7416	8191,4
Andijon viloyati	4361,9	5385,3	6441,4	9514,6	12025,2	13977,6
Buxoro viloyati	4486,2	5503,5	6781,4	11959	14167,2	16101,8
Jizzax viloyati	2616,9	2891,9	3234	5113	5878,7	6741,7
Qashqadaryo viloyati	4274,3	4826,1	5664,9	10406,2	11368,7	12464,2
Navoiy viloyati	2921,8	3899,5	4706,8	8202,6	8963,3	9883,7
Namangan viloyati	4260,7	5229,7	6069,8	10083,6	12298,2	14237,3
Samarqand viloyati	4687,4	6136	6922,3	10230,6	13468,6	16277,3
Surxondaryo viloyati	4020,9	5086,2	6015,4	9993,2	11927,5	13074,5
Sirdaryo viloyati	2327,5	2146,9	2563,9	3631,4	4117,2	5773,9
Toshkent viloyati	5500,2	7179,3	9096,9	16825,3	24248,2	28537,1
Farg'ona viloyati	5010,9	6099,1	6951,3	11399	13336,1	15926,9
Xorazm viloyati	2534,6	3725,4	4375,6	7974,3	10465,2	12692,4
Toshkent shahri	13266	15954,6	20081,8	37271,8	49109,7	57047,1

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2025-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi respublika bo'yicha izchil o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2020-yilda 63 866,6 mlrd so'mni tashkil etgan ko'rsatkich 2025-yilga kelib 230 926,9 mlrd so'mga yetgan bo'lib, bu davr mobaynida qariyb 3,6 barobar o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, 2022–2023-yillarda qurilish ishlari hajmining keskin oshishi qayd etilgan bo'lib, bu holat investitsiya faolligining ortishi hamda yirik infratuzilma loyihalarining jadallashuvi bilan izohlanadi.

Umuman olganda, 2-jadval ma'lumotlari kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish sohasidagi faolligi iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biriga aylanib borayotganini tasdiqlaydi. Qurilish ishlari hajmining izchil o'sishi tarmoqda kichik biznesning institutsional va moliyaviy imkoniyatlari kengayganini, investitsion muhitning yaxshilanganini hamda pudratchilik munosabatlarining rivojlanib borayotganini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, qurilish ishlari hajmidagi o'sishni ta'minlagan asosiy omillardan biri sifatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari hajmini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida keltiriladigan jadvalda aynan mazkur ko'rsatkichning dinamikasi yoritiladi (3-jadval).

 3-jadval. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi (mlrd so'mda)⁶

Hududlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O'zbekiston Respublikasi	96 629,2	109 202,2	127 640,6	176 630,5	265 685,8	362 910,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 478,2	2 415,5	2 738,0	3 867,4	5 940,4	13 541,0
Andijon viloyati	5 750,8	6 269,6	8 466,9	12 901,1	21 144,9	25 417,7
Buxoro viloyati	4 760,3	7 232,8	9 760,6	19 413,9	28 300,0	24 407,7
Jizzax viloyati	9 800,2	6 365,2	7 474,6	10 370,5	12 330,7	18 601,1
Qashqadaryo viloyati	3 676,1	4 459,7	4 303,8	7 945,6	15 628,0	15 744,0
Navoiy viloyati	4 934,6	5 936,5	7 686,5	12 453,9	12 254,6	23 208,9
Namangan viloyati	8 476,6	8 606,0	9 637,9	13 010,3	44 061,2	51 178,8
Samarqand viloyati	9 181,6	8 787,8	11 438,3	16 182,8	15 756,6	24 285,9
Surxondaryo viloyati	4 318,7	5 744,3	5 728,4	10 600,2	7 982,5	14 460,9
Sirdaryo viloyati	3 075,7	4 454,1	9 447,5	11 622,9	8 384,2	11 915,0
Toshkent viloyati	8 234,0	13 599,1	13 164,4	18 630,1	33 038,5	44 103,5
Farg'ona viloyati	6 841,3	7 644,4	9 564,7	12 170,2	15 597,5	24 267,3
Xorazm viloyati	3 402,9	4 606,8	4 596,0	4 654,7	8 463,6	15 649,2
Toshkent shahri	21 698,2	23 080,4	23 633,0	22 806,9	36 803,1	56 128,9

5 **Manba:** muallif ishlanmasi (rasmii statistik ma'lumotlar asosida).

6 **Manba:** muallif ishlanmasi (rasmii statistik ma'lumotlar asosida).



3-jadval tahliliga ko'ra, 2020–2025-yillarda kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari respublika bo'yicha jadal o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, 2020-yilda 96 629,2 mlrd so'mni tashkil etgan investitsiyalar hajmi 2025-yilga kelib 362 910 mlrd so'mga yetgan bo'lib, bu davr mobaynida qariyb 3,7 barobar o'sish kuzatilgan. Ayniqsa, 2023–2025-yillarda investitsiya hajmining keskin oshishi qayd etilgan bo'lib, bu qurilish, sanoat hamda xizmatlar sohaslaridagi investitsion loyihalar faollashgani bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida Toshkent shahri va Toshkent viloyati yetakchi o'rinlarni egallab, investitsiya hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan. Namangan viloyatida ham investitsiyalar jadal o'sib, 2025-yilda 51 178,8 mlrd so'mga yetgan. Samarqand, Farg'ona, Andijon hamda Buxoro viloyatlarida ham barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan bo'lib, investitsiya hajmi bilan qurilish ishlari hajmi o'rtasida muayyan bog'liqlik mavjudligi namoyon bo'ladi. Ayrim yillarda ayrim hududlarda qisqa muddatli pasayishlar kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy tendensiya ijobiy yo'nalishda saqlanib qolgan.

3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy kapitalga kiritgan investitsiyalari hajmi hududlar kesimida sezilarli darajada farqlanishini hamda barqaror o'sish dinamikasi mavjudligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qurilish ishlari hajmi, investitsiya faolligi, YalMdagi ulush va tarmoqdagi ulush ko'rsatkichlarini alohida tahlil qilish hududiy rivojlanish darajasini to'liq baholash imkonini bermaydi.

Shu sababli hududlarning rivojlanish darajasini kompleks baholash maqsadida integral indeks (II) hisoblab chiqildi. Mazkur indeks to'rtta asosiy ko'rsatkich asosida shakllantirildi:

- X_1 – Qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm)
- X_2 – Qurilish ishlarida kichik biznes ulushi (%)
- X_3 – Investitsiyalarda kichik biznes ulushi (%)
- X_4 – YalMda kichik biznes ulushi (%)

Barcha ko'rsatkichlar "stimulyator" turiga mansub bo'lib, ya'ni ularning yuqori qiymati hududiy iqtisodiy rivojlanish darajasining yuqoriligini bildiradi.

Har bir ko'rsatkich quyidagi formula asosida normallashtirildi:

$$Z_{ij} = \frac{X_{ij} - X_{min}}{X_{max} - X_{min}}$$

Bu yerda:

- Z_{ij} - i-hududning j-ko'rsatkich bo'yicha normallashtirilgan qiymati
- X_{ij} - asl ko'rsatkich
- X_{min}, X_{max} - minimal va maksimal qiymat

Natijada barcha ko'rsatkichlar 0 dan 1 gacha oralikka keltirildi. Barcha ko'rsatkichlarga teng vazn berildi:

$$II_i = \frac{1}{4} (Z_{i1} + Z_{i2} + Z_{i3} + Z_{i4})$$

Agar tahlil maqsadiga ko'ra ayrim omillarga ustuvorlik berish talab etilsa (masalan, investitsiya yoki qurilish hajmiga), vaznli model qo'llanilishi mumkin:

$$II_i = w_1 Z_{i1} + w_2 Z_{i2} + w_3 Z_{i3} + w_4 Z_{i4} \text{ bu yerda:}$$

$$w_1 + w_2 + w_3 + w_4 = 1$$

Shunday qilib, integral indeks hududlarning kichik tadbirkorlik asosida qurilish sohasidagi rivojlanish darajasini kompleks va tizimli baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv alohida ko'rsatkichlarni emas, balki ularning o'zaro bog'liq ta'sirini hisobga olgan holda hududiy reyting hamda klaster tahlilini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish sohasidagi rivojlanish darajasini kompleks baholash maqsadida 2024-yil ma'lumotlari asosida integral indeks hisoblab chiqildi. Mazkur indeks qurilish ishlari hajmi, qurilish ishlarida kichik biznes ulushi, investitsiyalardagi ulush hamda YalMdagi ulush kabi to'rtta asosiy ko'rsatkich asosida shakllantirildi.

Ko'rsatkichlar o'zaro taqqoslash imkoniyatini yaratish maqsadida normallashtirildi va yagona shkalaga (0–1 interval) keltirildi. Natijada har bir hudud uchun kompleks baholash ko'rsatkichi — integral indeks aniqlandi. Quyida 2024-yil bo'yicha normallashtirilgan ko'rsatkichlar hamda hisoblangan integral indeks qiymatlari keltirilgan (4-jadval).

4-jadval. Normallashtirilgan ko'rsatkichlar (2024-yil)⁷

Hudud	Z ₁ (Hajm)	Z ₂ (Qurilish %)	Z ₃ (Inv %)	Z ₄ (YaIM %)	Integral indeks
Toshkent shahri	1.00	0.52	0.32	0.49	0.58
Toshkent viloyati	0.48	0.78	0.47	0.53	0.57
Samarqand	0.26	0.85	0.63	0.72	0.62
Farg'ona	0.26	0.78	0.84	0.74	0.66
Namangan	0.24	0.91	1.00	0.74	0.72
Buxoro	0.28	0.84	0.63	0.72	0.62
Surxondaryo	0.23	0.90	0.49	0.77	0.60
Qashqadaryo	0.22	0.72	0.45	0.70	0.52
Navoiy	0.17	0.60	0.37	0.23	0.34
Xorazm	0.21	0.91	0.63	0.73	0.62
Andijon	0.24	0.93	0.86	0.70	0.68
Jizzax	0.10	0.90	0.52	0.75	0.57
Sirdaryo	0.05	0.84	0.86	0.69	0.61
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0.13	0.86	0.28	0.66	0.48

4-jadval ma'lumotlari hududlar o'rtasida kichik tadbirkorlikning qurilish sohasidagi rivojlanish darajasi bo'yicha sezilarli farqlar mavjudligini ko'rsatadi. Integral indeks qiymati eng yuqori Namangan (0,72), Andijon (0,68) va Farg'ona (0,66) viloyatlarida kuzatilgan bo'lib, ushbu hududlarda kichik biznes qurilish va investitsiya faoliyatida yetakchi o'rin egallayotganini anglatadi.

Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari o'rtacha yuqori guruhga kirib, ko'rsatkichlarning nisbatan muvozanatli taqsimlangani bilan ajralib turadi. Toshkent shahri va Toshkent viloyatida qurilish ishlari hajmi yuqori bo'lishiga qaramasdan, nisbiy ulush ko'rsatkichlari o'rtacha darajada shakllanganligi sababli integral indeks o'rta pozitsiyani egallagan.

Eng past ko'rsatkich Navoiy viloyatida (0,34) qayd etilgan bo'lib, bu hudud iqtisodiy tarkibida yirik sanoat tarmoqlarining ustunligi bilan izohlanadi. Umuman olganda, integral indeks tahlili kichik tadbirkorlikning qurilish sohasidagi rivojlanishi hududiy iqtisodiy struktura va investitsion faollik darajasiga bevosita bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2020-2025-yillar davomida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish sohasidagi faolligi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Qurilish ishlari hajmining bir necha barobarga oshishi mazkur tarmoqda kichik biznesning amaliy roli sezilarli darajada kuchayganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, investitsiya faolligining jadallashuvi qurilish sohasida yangi ishlab chiqarish quvvatlari yaratilishiga, infratuzilmaning kengayishiga hamda hududiy iqtisodiy faollikning oshishiga xizmat qilgan.

Hududlar kesimida o'tkazilgan tahlil natijalari rivojlanish darajasida muayyan differentsiatsiya mavjudligini ko'rsatdi. Integral indeks bo'yicha Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlari yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu hududlarda kichik tadbirkorlik qurilish va investitsiya jarayonlarida yetakchi o'rin egallayotganini anglatadi. Ayrim sanoatlashgan hududlarda esa kichik biznesning YaIMdagi ulushi past bo'lishiga qaramasdan, mutlaq qurilish hajmi yuqori darajada shakllangan. Bu holat hududlarning iqtisodiy tarkibi va ixtisoslashuv darajasining muhim ta'sirini ko'rsatadi.

Tahlil natijalari investitsiyalar hajmi va qurilish ishlari dinamikasi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjudligini ham ko'rsatdi. Investitsiya resurslarining kengayishi qurilish faolligining oshishiga xizmat qilgan. Biroq ayrim hududlarda investitsiya ulushining yuqoriligi qurilish hajmida mutanosib aks etmayotgani resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Birinchi, qurilish sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, imtiyozli kreditlash hamda kafolat tizimlarini kengaytirish zarur.

Ikkinchi, yirik qurilish loyihalarida subpudrat asosida kichik biznes ishtirokini rag'batlantiruvchi institutsional mexanizmlarni kuchaytirish lozim.

Uchinchi, past indeksga ega hududlarda investitsion faollikni rag'batlantirishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

7 Manba: muallif hisob-kitoblari.



To'rtinchidan, raqamli tender tizimlarini yanada takomillashtirish orqali shaffoflikni ta'minlash hamda kichik korxonalar uchun teng raqobat muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish sohasidagi rivojlanishi milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Institutsional va investitsion qo'llab-quvvatlash choralari tizimli ravishda takomillashtirish orqali tarmoqda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi PF-6119-son "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5130468>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6658633?ONDATE=11.11.2023%2000>
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar (2020–2025-yillar). – Toshkent, 2025.
5. Гайдар Е.Т. Экономические реформы и проблемы экономического роста. – Москва: Дело, 2003.
6. Воронин В.А. Экономика строительства: теория и практика. – Москва: Инфра-М, 2018.
7. Королева М.А. Инвестиционная деятельность в строительной отрасли. – Москва: Юрайт, 2019.
8. G'ulomov S.S. Iqtisodiyot nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.
9. Xodiev B.Yu. Milliy iqtisodiyot rivojlanishining strategik yo'nalishlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
10. Zaynutdinov Sh.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
11. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
12. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934.
13. World Bank. Small and Medium Enterprises (SME) Finance and Development Report. – Washington DC, 2023.
14. OECD. Financing SMEs and Entrepreneurs 2024: An OECD Scoreboard. – Paris: OECD Publishing, 2024.
15. Chan D.W.M., Olawumi T.O. Critical Success Factors for Construction SMEs Development. // Journal of Construction Management, 2021.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100